

CHET TILINI OSON VA SAMARALI O'RGANISH USULLARI

To'raqulova Dilfuza Mamaraim qizi

Guliston davlat pedagogika institute Ijtimoiy gumanitar fanlar fakultetiti

"Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi" 8-22-guruh talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada chet tilini tez va samarali o'rganish yo'llarini o'rgatadi. Ayniqsa, ingliz tilini o'rganish uchun bizdan ko'p vaqt talab qiladi. O'ylaymanki, ushbu maqola vaqtimizni to'g'ri sarqlab tez va oson o'rganishimizga yordam beradi.

Kalit so'zlar: kuchli ishtiyoq, har kunlik mashg'ulot, qobilyatlar turi, grammatikani o'rganish, lug'at boyligini oshirish, talaffuz, takrorlash, smartfondan to'g'ri foydalanish.

Bugungi hayotni chet tillarisiz faraz qilib bo'lmaydi. Globalizatsiya jarayoni tezlashgan sari chet tilini o'rganish zamon talabi bo'lib boryapdi. Bugungi kunda har qanday sohada yaxshi bir mutaxassis bo'lish uchun ingliz tilini bilish oddiy talabga aylanib qoldi. Biz ingliz tilini o'rgansak ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lamiz.

Buning uchun insonda avvalo kuchli ishtiyoq bo'lishi zarur. O'zizga har doim bu tilni nima uchun o'rganishim kerak? degan savolni bering va har qanday qiynalgan vaziyatingizda yoki ikkilanganizda tilni o'rganishdan maqsadingizni eslang. Eng muhimi siz til o'rganishingizda barchasi oson va unchalik qiyin emasligi, til o'rganishda boshqalardan kam joyingiz yo'qligini anglab yetishingiz zarur. O'zingizga bo'lgan ishonchni oshirib bo'lgandan keyingina, siz tilni o'rganishga kirishsangiz bo'ladi

Har kunlik mashg'ulot.

Bugungi kunda ko'plab til kurslari haftada bir yoki ikki kun ikki soatdan dars bo'lib o'tadi, bu esa biz uchun yaxshi natija bermaydi. Chunki boshqa kunlari kundalik yumushlar bilan band bo'lamiz. Odatda darsgacha oldingi darsdagi mavzularni esdan chiqarib qo'yadi va bu esa o'rganish jarayonini ancha sekinlashtiradi. Biz har qanday chet tilini o'rganayotganimizda uni jar kuni o'rganish va takrorlash kerak. Shundagina o'rganish jarayoni ancha tezlashadi. Biz birinchi o'rinda o'zimizga majburiyat yuklab olishimiz kerak. Masalan, "Men har kuni har qanday vaziyat bo'lishidan qat'iy nazar ingliz tilini o'rganishga ikki soat vaqt ajrataman!" Shunda bizning eslab qolish natijamiz keskin oshib boradi. Ko'pchilik bu usulni qilishim kerak deydi-yu, lekin amalda bajarishmaydi. Biz o'zimizni shu kunlik mashg'ulotga moslashtirishimiz kerak. O'shandagina kutgan natijamizga erisha olamiz.

Qobilyatlar turi.

Tilshunos olimlar ingliz tilini o'rganishni to'rtta katta yo'nalishga bo'lishgan ;

-O'qish (Reading)-bu chet tilidagi matnni o'qib tushunish qobilyati.

-Eshitish(listening)-bu chat tilida eshitish va tushunish qobilyati.

-Yizish (Writing)-chet tilida yozish qobiliyati.

-Gapirish(Speaking)-o'z fikr va g'oyalarni chet tilida ifoda eta olish qobiliyati hisoblanadi.

Biz bularga erishish uchun uchta eng kerakli narsani o'zlashtirish muhimdir . Bular: grammatika, lug'at boyligi va talaffuz.

1. Grammatikani o'rganish buz uchun oson bo'lmaydi albatta. Biz hohlasakda hohlamasakda, tilni o'rganishda eng murakkab qismi aynan grammatikadir. Biz ko'p kuzatamizki, ko'pchilik grammatikani o'rganishda qoida yodlashga tushadi. Qoidalarni yod oldi degani grammatikani o'rgandi degani emas. Afsuski, bunday insonlar ko'pchilikni tashkil etadi. Chet tili grammatikasi va fonetikasidagi qoidalarni yoddan biladilar , lekin ular tilda bexato murakkabroq bir gap tuzib bera olmaydilar.qoida yodlash degan narsani umuman miyangizdan chuqarib tashlang . Siz barcha qoidalarni yodlamang faqatgina , eng ko'p ishlatiladiganlarini yidlang. Qoidalarni barchasini yodlab olganingiz bilan ularni 30%ini ishkatasiz xolos . Qolganlarini esa ishlatmaysiz . Bu esa sizda turli xil zerikish va chalkashmovchiliklarga olib kelishi mumkin . O'rgangan narsalaringizni har kuni takrorlang va ularga boshlanishiga soddaroq keyinchalik murakkabroq gaplar tuzib boring. Sodda gapda asosan , Ega+kesim+to'ldiruvchi dan tashkil topadi.

2. Lug'at yodlash.

Bu jarayonda ham o'zingizni yillar davomida so'z yodlash bu noto'g'ri metoddir . Men oldinlari kuniga 10tadan so'z yodlar edim . Muommo shundaki, men ingliz tilida gapirganimda bularni qo'llay olmasdim ,deyarli bunday so'zlardan foydalanmasdim . Bu esa ,hech qanday natija bermasdi.

Bizda bu to'g'risida "Active vocabulary" va "Passive vocabulary" degan tushunchalar mavjud. Agar xulosa qiladigan bo'lsak, " active vocabulary " dagi so'zlarni siz hech qanday muommolarsiz ishlata olasiz . ulardan turli xil qiyinchiliklarsiz foydalana olasiz. Ammo u so'zlar "passive vocabulary" ga tushgan bo'lsa , u so'zni siz faqatgina ko'rish yoki eshitish qisqacha qilib aytadigan bo'lsak turtki orqali eslay olasiz. Passive vocabulary qismidagi so'zlar juda xavfli hisoblanadi . Negaki, bu so'zlar mutloq esdan chiqib ketish ehtimoli bor. Buning uchun biz "Active vocabulary" qismidagi so'zlarni saqlab qolish va "passive vocabulary" dagi so'zlarni "active vocabulary" ga o'tkazishdir. Buning uchun biz inglizcha kinolarni ko'rsak ancha yordam beradi. Ko'rgan kino yoki video roliklarimizdagi barcha notanish so'zalrni tarjima qilib , ularni ularni talaffuziga yaxshilab etibor berishimiz kerak. Shunda bizning ham lug'at boyligimiz ham talaffuzimiz o'sib boradi.

3.Talaffuz.

Har bir til o'zining talaffuziga ega . Hozirgi kunda texnika taraqqiyoti rivojlanib ketdi. Shu sababli hammamizda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Biz turli xil inglizcha kinolar va inglizcha qo'shiqlar eshitsak bizning talaffuzimizni ancha oshiradi. Yana bir usullaridan biri bu chet tilida qo'shiq eshitganda undan yana bir boshqa

bir maqsadda ham foydalansa bo'ladi. Yaxshi ko'rgan qo'shig'ingizni matnini chet tilida toping va o'z tilingizga lug'at yordamida tarjima qiling .Yoki inglizcha matnlar bilan ko'p ishlang , shunda siz o'zizga notanish bo'lgan so'zlarni belgilab tarjima qiling .Keyin siz o'sha matnni yopgan notanish so'zlaringizni tarjimasiga qaramay inglizchadan o'z tilingizga tarjima qiling . Shunda sizning esingizda qoladi hamda ularni qaysi vaqtda ishlatishni bilib olasiz

Yana bir foydali usullaridan biri bu "Native speaker " yani ona tili ingliz tili bo'lgan insonlarni nutqini tinglash va ular bilan suhbatda bo'lishdir.Hozirgi kunda hammamizning online aloqada bo'lishga imkoniyatimiz mavjud . Yani biz bundan foydalanib "Native speakerlar bilan bemaol aloqada bo'lib talaffuzimizni oshirish uchun suhbatlashib turli xil malumotlar olsak bo'ladi.

Biz ingliz tilini tez va samarali o'rganishimiz uchun yana bir qancha maskahatlar bermoqchiman .

1.Maqsadni aniq belgilab olish .

Agar sizda biron ishda ayniqsa til o'rganishda , muvaffaqiyatga erishish uchun emas. Shu sababli ingliz tilini o'zi nimaga o'rganmoqchi ekanligingiz haqida fikr yuriting. Hozirgi kunda ko'pchilik uydagilarning yoki boshqalarning fikri bilan qiziqishsiz til o'rganishga boryabdi. Avvalo, o'zingizda qiziqish va maqsad bo'lishi lozim . Masalan ingliz tilini o'rganib jahon tillari universetiga birinchi grant bo'lib kiraman , " Vesminestr universetiga grand asosida o'qishga kiraman" yoki "chet ellarga o'qishga va yuqori mavqelarda ishlashga boraman" , yana "chet el bilan hamkorlikda yangidan yangi kompaniyalar ochaman" , deb maqsad qo'yish mumkin. Unutmang, maqsad qanchalik jiddiy bo'lsa, til o'rganish shuncha tez va samarali kechadi.

2.Til asosini takrorlash tashkil etadi.

Tilni doimiy takrorlashlarsiz o'rganib bo'lmaydi . Siz kuniga 15tadan yangi so'z yodlashingiz mumkin .ammo bu so'zlarni 2-3kundan keyin takrorlamasangiz esingizdan chiqib ketishi tabiiy holdir. Buning uchun siz ko'zingiz eng ko'p tushadigan joylardan samarali foydalanishingiz mumkin. Shaxsan men xonamning eshigi va dars qiladigan stolimga yangi o'rgangan so'zlarimni kichik qog'oz parchasiga yoki turli xil stekrlarga yopishtirib qo'yaman .

3. Muloqot qilish.

Til muloqot vositasidir . Biz hammamiz bilamizki, tilni organishda muloqot muhim rol o'ynaydi. O'quv markazlaridagi yoki resurs mazkazlaridagi Speaking Clublarga boring. Hali ravon gapira olmasangiz ham gapirishdan hech qachon uyalmang. Suhbatlarda ishtirok etishga uyalgan kishidan tilni hali tuzukroq bilmasa ham, gapirishga harakat qilgan kishi yutadi. Umuman olganda gapirishdan hech qachon uyalmang , xatolaringiz bo'lsa ham gapirishda davom eting .

Yoki siz doimiy mashq qilish uchun o'zingizga sherik toping. Buning yana bir foydali tomoni shundaki, bu usul sheriklar orasida o'ziga xos raqobat muhitini yaratadi. Masalan siz sherigingizdan orqada qolmaslik uchun ham yodlashga harakat qilasiz.

4. Til o'rganish jarayonini kundalik hayotingizga moslab boring.

Tilni o'rganishda hammasini kundalik hayotingizga moslab boring. Masalan har kuni institut yoki maktabga avtobusda qatnasangiz kamida 30-35 daqiqa vaqtingiz bekor ketadi. Siz bu vaqtdan unumli foydalaning. Turli xil Listening Comprehension'ni rivojlantirish uchun mashqlar yoki audiolarni tinglab ketishingiz mumkin.

5. Smartfoningizdan to'g'ri va samarali foydalaning siz til o'rganish jarayonida tez o'rganish uchun oson usullarni qo'llashingiz kerak. Bunda sizga smartfoningiz yordam beradi. Smartfoningizdan foydalanib to'lovli kurslarga qatnab yurmasdan bepul ingliz tilini o'rganish dasturlarini yuklab olib ulardan foydalanishingiz mumkin. Hamda turli xil inglizcha kinolarni subtitrlari bilan ko'rishingiz mumkin.

Ingliz tilini o'rganish oson emas. Bunda sizga oldingizga qo'ygan aniq maqsad qo'yish, yangi so'zlarni doimiy takrorlab borish, fursat bo'lganda uyalmasdan muloqot qilish, ingliz tilini o'rganish jarayonini hayotingizga moslashtirib borish va nihoyat, texnologiyadan samarali foydalanishni talab qiladi.

Xulosa: men bu maqolada ingliz tilini o'rganishda qiynalayotgan o'rganuvchilarga tez va samarali usullarini topib o'rgatishga harakat qildim. Umid qilamanki, bu maqola ingliz tilini tez o'rganishda qiynalayotgan o'rganuvchilar uchun foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Six games for the EFL / ESL by Aydan Ersoz, the internet TESL Journal . Vol. V1, No, 6_ June 2000.
2. <http://vaqt.uz.com>.